

AVAZ O'TAR MA'RIFAT KUYCHISI

Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining taniqli vakili Avaz O'tar o'g'lining hayoti va ijodi, uning ma'rifatparvarlik ruhida bitilgan "Til", "Maktab" she'rlari tahlil qilinadi. Asarlarining o'quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati yuqori ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ma'rifat, adabiyot, she'r, til, ilm-fan, maktab, chet tili, ezgulik

Inson axloqini bezovchi, go'zallashtiruvchi bir sohasi – estetik tarbiyasidir. Bu tarbiyani olgan inson hayot, tabiat go'zalliklaridan zavqlanadi, gullarga, qushlarga, barcha jonzotlarga mehr-shafqat bilan qaraydi, adabiyotni, musiqani, tasviriy san'at asarlarini nozik tushunadi. Qayg'uli, fojeali hodisalardan ham saboq oladi, ruhi poklanadi. [1] Ma'rifat kishilarning ongini, bilimni madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya hisoblanadi. Ma'rifat tushunchasi madaniyat, ma'naviyat tushunchalari bilan bevosita bog'liq. Ma'rifat ma'naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo'lishiga yordam beradi. Shubhasiz, biz ma'rifatni qaror toptirishimizda, jamiyatimiz a'zolarini ma'rifatli qilishimizda adabiyot beqiyos o'rin tutadi. Darhaqiqat, qalami o'tkir shoirimiz Abdulla Qahhor aytganidek: "Adabiyot – atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak". Biz umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fanidan turli yozuvchi, shoirlar hayoti va ijodi bilan tanishamiz. Har bir shoirning o'ziga xos ijodi, bosib o'tgan yo'li bilan yaqinlashamiz. Har birining hayoti, shaxsiyatidan o'zimzga zarur bilim va xulosa olamiz. Asarlarini o'qib, shoir bosib o'tgan yo'llariga, hayot sinovlariga biroz bo'lsada javob izlab ko'ramiz.

O'zbek mumtoz adabiyotining taniqli vakili Avaz O'tar o'zining ma'rifatparvarlik ruhidagi asarlari bilan adabiyotimiz tarixida alohida o'rin tutadi. Shoir hayoti va ijodi 6-sinf adabiyot darsligidan o'rin olgan bo'lib, unda adibning

adabiyotga kirib kelishi, do'stlari, asarlari haqida so'z boradi. Adib o'z zamonasining yetuk adiblari Ogahiy, Komil Xorazmiy, Mujrib Xonaxarobiy, Bayoniy kabi shoirlar bilan do'stona munosabatda bo'lishi, tez-tez adabiy suhbatlar qilib turishi hamda Xo'ja Hofiz, Nizomiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy ijodini qiziqib o'rganishi uning ilm-ma'rifatga, adabiyotga mehri balandligidan dalolat beradi. Avaz O'tar o'n to'rt yoshlaridanoq she'r yozishga kirishgan va o'n sakkiz yoshlaridayoq yetuk shoir nomini olib, ko'pchilikning e'tiboriga tushgan. Shoirning zamondoshi Matfanobobo Xudoyberganov shunday hikoya qiladi: "Bir kuni shaharda juda katta to'y bo'ldi. O'nta surnay va kishilarning shovqinidan quloqlar kar bo'lish darajasiga kelgan edi. Avaz she'r yozishga tutindi. Men undan: "Shu qadar notinch vaziyatda sizga qanday she'riy idrok keladi?" deganimda, u: "Mening boshimda shu qadar g'alvalar to'foni mavj urmoqdaki, ularning oldida bu shovqin hech narsa emas. Yurak qon, dard bilan to'lgan... Dilimdagi so'z durlari shu qadar beshumorki, labimni so'zga ochsam, yuz misrani xat qilganimni bilmay qolaman", deb menga o'qish uchun yetti g'azal uzatdi.." [2] Bu xarakterli xotira Avaz O'tarning naqadar sermahsul ijod egasi bo'lganligidan dalolat beradi.

Avaz O'tar turli mavzularda qalam tebratadi. Jumladan, shoirning ma'rifatparvarlik ruhidagi asarlari biz kabi yoshlarni ilm olishga, ma'rifatli bo'lishga da'vat bo'lib yangrab kelmoqda. Mana shu asarlari ichida shoirning "Til", "Maktab" she'rlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, shoir "Til" she'rida kishilarning aloqa vositasi til ekanligini, chet tillarini o'rganish hamda uni o'z ona tilidek bilish foyda ekanligini, til insonlarni birlashtiradigan bir kuch ekanligini, o'zining til o'rgana olmaganligini ta'kidlaydi va yoshlarni til o'rganishga da'vat qiladi:

Zor o'lmasun onlar dog'i til bilmay Avazdek,

Til bilmaganidan oni bag'ri to'la qondur. [3]

Shoirning ma'rifatparvarlikni targ'ib etuvchi asarlaridan yana biri bu "Maktab" she'ridir. Shoir she'rdagi maktabni ilm-madaniyat manbai sifatida ta'riflaydi,

maktab ochish taklifini beradi. Har bir ota-onaga ko'zlarining nuri hisoblangan farzandlarini o'qitish farzlarini yodiga solib qo'yadi. Farzandlar maktabda o'qisa, ilm olsa har qanday vayron millatni obod qilishi, g'am tashvishlardan ozod etishi, yomon ishlardan uzoqda bo'lishi ta'kidlanadi. She'rda barcha yaxshiliklarning, ezguliklarning asosi, ilm-ma'rifat o'chog'i hisoblanmish maktab ekanligi va barcha jahl-u nodonliklarni barbod qiluvchi ham maktab ekanligi keng tasvirlanadi hamda maktab bizni yaxshi tilak va orzularimizga yetishtirishiga ishonch bilan qaraladi:

Bu ne navmidlikdur, maktab ochsak, oqibat bizni,

Abro'si kom ila maqsudga domdod etgusi maktab.[3]

Xulosa o'nida, biz yuqorida ta'rif bergan " Til", "Maktab" she'rlarining o'zi ham shoirning ilm-fan jonkuyari, ma'rifat kuychisi ekanligini isbotlaydi. Darhaqiqat, Avaz O'tar ma'rifatparvarlik yo'g'rilgan she'rlari bilan bir qatorda ibrat olsa arziydigan hayoti bilan ham biz yoshlarga katta namuna bo'la oladi. O'quvchi adibning ijodi bilan tanishgach, o'zida yangi-yangi qirralarni kashf eta boshlaydi, oldinga intiladi. Ilm-ma'rifatli bo'lishga talpinadi, bunda esa albatta adibning asarlari har qadamda qulog'imizda da'vat kuyi bo'lib yangraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шерматова, У. С. (2020). Чўлпон ижодида табиат эстетикаси. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 338-6.
2. www.ziyonet.com
3. Adabiyot . 6-sinf uchun darslik . / S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2017. – 66-67-b
4. QOMUS.INFO

